

JANUBIY OROLBO'YI HUDUDI AHOLISI DINIY E'TIQODLARINING MODDIY ASHYOLARDA AKS ETISHI

Abdumajidova Mahbuba Sirojiddin qizi

Urganch davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti 1-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15367783>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Orolbo'yi hududida yashovchi aholining diniy e'tiqodlari va ularning moddiy madaniyatda ifodalanishi tahlil etiladi. Diniy qarashlarning me'moriy yodgorliklar, kundalik turmush buyumlari, bezak san'ati hamda dafn marosimlariga oid ashyolarda qanday aks etgani ilmiy asosda o'rganiladi. Shuningdek, diniy ramzlar, naqshlar va haykalchalar orqali aholining dunyoqarashi, qadriyatlar hamda e'tiqodiy an'analari yoritiladi. Maqolada tarixiy-arxeologik topilmalar misolida diniy tasavvurlar va ularning moddiy madaniyatdagi ko'rinishlari chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Janubiy Orolbo'yi, diniy e'tiqodlar, moddiy madaniyat, arxeologik topilmalar, diniy ramzlar, diniy san'at.

ОТРАЖЕНИЕ РЕЛИГИОЗНЫХ ВЕРОВАНИЙ НАСЕЛЕНИЯ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ В МАТЕРИАЛЬНЫХ ПАМЯТНИКАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются религиозные верования населения южного Приаралья и их отражение в материальной культуре. На научной основе изучается, как религиозные представления нашли выражение в архитектурных памятниках, предметах повседневного быта, декоративном искусстве, а также в погребальных обрядах. Кроме того, через религиозные символы, орнаменты и статуэтки раскрываются мировоззрение, ценности и религиозные традиции населения. В статье проводится глубокий анализ религиозных представлений и их проявлений в материальной культуре на основе археологических находок.

Ключевые слова: южное Приаралье, религиозные верования, материальная культура, археологические находки, религиозные символы, религиозное искусство.

MATERIAL EXPRESSIONS OF RELIGIOUS BELIEFS AMONG THE INHABITANTS OF THE SOUTHERN ARAL SEA REGION

Abstract. This article explores the religious beliefs of the inhabitants of the Southern Aral Sea region and their manifestations in material culture. It analyzes how religious concepts are reflected in architectural monuments, everyday objects, decorative arts, and burial-related artifacts. Through religious symbols, motifs, and figurines, the study reveals the worldview, value system, and spiritual traditions of the local communities. Drawing on archaeological findings, the article provides a comprehensive examination of the interplay between belief systems and material expressions in this historical-cultural context.

Keywords: Southern Aral Sea region, religious beliefs, material culture, archaeological evidence, religious symbols, spiritual traditions, cultural heritage.

KIRISH

Janubiy Orolbo'yi hududi qadimdan ko'plab etnos va madaniy qatlamlarning chorrahasida joylashgan bo'lib, ushbu hududda yashagan qadimgi aholining diniy e'tiqodlari

moddiy madaniyat yodgorliklarida o'z ifodasini topgan. Temir davri arxeologik yodgorliklari, ayniqsa, Qo'yqirilgan qal'a, Kazakliyatkan, Tuproqqal'a va Ayazqal'a kabi joylardagi topilmalar, ushbu hududda rivojlangan diniy tasavvurlar va marosimlarning izlarini aniq ko'rsatadi. Janubiy Orol bo'yi mintaqasida temir asriga tegishli bo'lgan ko'plab yodgorliklar bo'lib, ular har tomonlama chuqur o'rganilayotgani shubhasiz. Ko'plab yodgorliklarda tadqiqot ishlari davom etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi temir davrida Xorazm vohasi aholisining diniy qarashlari hamda vohadagi diniy qarashlarning moddiy ashyolarda aks etishini o'rganishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: Janubiy Orolbo'yi hududi aholisi diniy e'tiqodlarining moddiy ashyolarda aks etishi masalasini arxeologik va yozma manbalar asosida ko'rib chiqish, voha aholisi diniy e'tiqodlari tarixshunosligini ochib berish, temir davri arafasida ijtimoiy-etnomadaniy munosabatlar tarixini yoritish, aholi diniy e'tiqodlarining Avesto kitobidagi tahlili (zardushtiylik dini xususiyatlari)ni tahlil qilish.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va antropologik tadqiqot usullariga asoslangan. Asosiy manba sifatida arxeologik materiallar, etnografik tadqiqotlar va tarixiy hujjatlar tahlil qilingan.

Janubiy Orolbo'yi hududi aholisi diniy e'tiqodlarini o'rganishda arxeologik, etnologik va tarixiy manbalar muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, S.P.Tolstovning «По следам древнехорезмийской цивилизации» asarida qadimgi Xorazmda shakllangan diniy tizim, uning moddiy va madaniy yodgorliklardagi izlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.[2] A.Asqarov va T.Shirinov tomonidan Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan qazilma ishlari natijalari diniy marosimlar, me'moriy inshootlar va muqaddas joylar haqida qimmatli dalillarni beradi.[3] M.G.Vorobyevaning izlanishlari ham diniy tasavvurlarni tushunishga xizmat qiladi.[4] Shuningdek, A.Sagdullayev tomonidan «Avesto»ga oid diniy qarashlarning dastlabki shakllari va ularning moddiy madaniyatda aks etishi tahlil qilingan bo'lib, bu holat Janubiy Orolbo'yi aholisi qadimgi e'tiqod tizimlari bilan uyg'un holda rivojlanganini ko'rsatadi.[5]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilk temir davri yodgorliklarining o'rganilishi natijasida O'rta Osiyoning turli viloyatlarida xonadon o'chog'i qadrlanganligini tasdiqlovchi dalillar aniqlangan. Surxon vohasidagi Kuchuktepadan muqaddas o'choq topilgan. Qadimgi voha aholisi o'choq kuyindilariga ehtirom bilan qaraganlar va kulni maxsus o'ralarga to'kkanlar.[5] Xuddi shunday urf-odat izlari Ko'zaliqirda aniqlangan.[6]

S.P.Tolstov Xorazm vohasini zardushtiylik vatani sifatida ta'riflagan edi.[7] A.A.Asqarov S.P.Tolstov tomonidan ilgari surilgan masalalarni qayta ko'rib chiqib, ularga tegishli o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. A.A.Ackapovning fikriga ko'ra, Xorazmni zardushtiylik paydo bo'lgan yurt, deb talqin qilish maqsadga muvofiq emas. A.A.Asqarov va T.Sh.Shirinov tomonidan Jarqo'ton olov ibodatxonasini o'rganish asosida dastlab olovga sig'inish tarzida vujudga kelgan zardushtiylik ta'limoti mil. avv. II ming yillik o'rtalariga mansubdir, degan xulosaga kelingan.[3]

Shuningdek, O'rta Osiyoning turli viloyatlarida istiqomat qilgan aholining diniy qarashlari va urf-odatlari har doim bir-biriga mos kelavermagan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo o'troq ziroatchi va ko'chmanchi chorvador aholisining diniy tasavvurlari va marosimlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan.

Ko'zaliqir madaniyatiga oid san'at namunalarida turli tasviriy an'analarning ta'siri kuzatiladi. Ushbu an'analarda qush boshli oltin taqinchoq, kiyik boshli oltin qubba, muhrdagi halqaga o'ralgan ilon, xalsedon toshidan yasalgan muhrdagi sher va bronza uzuk-muhrdagi o'qchi tasvirlarida o'z aksini topgan. Saklarning tasviriy san'atida qoplon va yo'lbarslarning bug'u va kiyiklarni yorib qiynashi tasvirlari keng tarqalgan. Tabiat kuchlariga ehtirom ko'rsatishga, quyoshga va olovga topinishga chorlovchi qadimgi madhiyalar "Avesto"ning tarkibiy qismlarini tashkil etib, zardushtiylik marosimlarida kohinlar tomonidan ijro etilgan.

Yozuvsiz zamonlarda shakllangan va "Avesto"ga kirgan tasavvurlar ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotga ega bo'lib, xalq og'zaki ijodida saqlangan. Jumladan, Xorazm vohasi folklorida turli darajada aks etgan.[8]

Qadimgi Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Ayoqqal'a, Bozorqal'a, Qangaqal'a, Qirg'iz kabi ko'plab qal'alarda olib borilgan arxeologik izlanishlar qadimgi Xorazmning nafaqat moddiy madaniyati, balki arxitektura va amaliy bezak san'ati ham yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Birgina Tuproqqal'adagi izlanishlarning o'zi qadimgi Xorazm shaharlarining puxta reja asosida qurilganligini, qurilish san'ati yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Qal'adagi saroy nihoyatda mahobatli va go'zal bunyod etilgan. Saroy ichida joylashgan "Podsho zali", "Askar zali", "Raqqoslar zali", "G'alaba zali" kabi ko'plab zallarning har biri o'ziga xos tarzda bezatilgan.

Xorazm vohasidagi ko'plab qadimgi qal'alar o'z qariida xorazmliklarning badiiy dunyoqarashi namunalarini saqlab kelgan. Mashhur arxeolog S.P.Tolstov Jonbosqal'a va Tuproqqal'a xarobalarini o'rganib, Jonbosqal'adan ko'plab terrakota haykalchalari, Tuproqqal'adan esa qadimgi xorazm hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalarni topadi. Shu boisdan ham S.P.Tolstov Jonbosqal'ani "Haykallar muzeyi", Tuproqqal'ani esa "Behisob tangalar muzeyi" deb atagan.

XULOSA

Umuman olganda, qadimgi xorazmliklarning afsonalari, yozuvi va diniy qarashlari qal'alardan topilgan san'at va hunarmandchilik namunalari bu o'lka xalqlarining ma'naviy madaniyati, estetik didi va dunyoqarashi nihoyatda yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Beruniyning ma'lumotlariga ko'ra va olimlarning tasdiqlashicha, eramizdan avvalgi III-II asrlarda Xorazmda Qo'yqirilganqal'a mustaqil astronomik kuzatish ishlari olib borilgan markaz va yulduz jadvali mavjud bo'lgan. Janubiy Orolbo'yi hududi aholisi diniy qarashlarini o'rganish, uning moddiy madaniyatdagi aks etishini chuqur tahlil qilishda arxeologik, etnologik va tarixiy manbalar muhim rol o'ynaydi.

Qadimgi Xorazmning diniy an'analari va dunyoqarashlari, shu jumladan, "Avesto"ning dastlabki diniy tushunchalari va ularning me'moriy yodgorliklarda aks etishi, tahlil qilingan manbalar orqali aniq ravishda ochib berilgan. Arxeologik topilmalar, yodgorliklar va marosim buyumlari orqali ajdodlarimizning diniy e'tiqodlari, ramzlari va tasavvurlarining qanday shakllanganini tushunish mumkin.

Ushbu o'rganishlar Janubiy Orolbo'yi hududidagi diniy madaniyatning boy va xilma-xil tarixi haqida muhim ilmiy ma'lumotlar taqdim etadi.

Shu bilan birga, mintaqaning diniy madaniyatini o'rganish, uning zamonaviy etnologik va tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga imkon yaratadi. Kelgusidagi tadqiqotlar, yangi arxeologik topilmalar va ilmiy izlanishlar bu sohadagi bilimlarni yanada boyitishi kutilmoqda.

REFERENCES

1. Asqarov A. (2019). O'zbekiston tarixi: Eng qadimgi davrlardan mustaqillikkacha. Toshkent: O'qituvchi.
2. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., 1948. – С. 88
3. Асқаров А. Ширинов Т. Раскопки монументального храма на Джаркутантепе // Творческое наследие народов Средней Азии в памятниках искусства, архитектуры и археологии. – Ташкент, 1982. – С.17.
4. Воробьева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1979.– С. 40
5. Сагдуллаев А. «Авесто»нинг илк диний ... – Б. 7-8
6. Мирзаев Т., Жўраев М. «Авесто» мифологияси ва ўзбек халқ оғзаки ижоди // O'zbekiston tarixi. – 2001. – № 3. – Б. 30-37; Абдуллаев Х. «Авесто» ва Хоразм воҳаси фольклори // O'zbekiston tarixi. – 2001. – № 3. – Б. 38-42.
7. Abdullaev H. "Avesto" va Xorazm Vohasi folklori // O'zbekiston tarixi, 2001. – № 3. – Б. 38-42. 230